

## FLEKTIV STRUKTURALARDA ANALITIK SHAKLLAR ZIDDIYATI VA ULARNING MO‘TADILLASHUVI

Usmonov Yorqinbek Muxtorjon o‘g‘li,

Qo‘qon davlat universiteti

yorqinjon90@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot flektiv strukturalarda analitik shakllar ziddiyati hamda ularning mo‘tadillashuv jarayonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda analitik shakllarning grammatik va semantik xususiyatlari, yordamchi vositalar orqali hosil bo‘ladigan ma‘no munosabatlari hamda ularning nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, analitik shakllar tarkibida yuzaga keladigan zamon, modal, shaxs-son va sintaktik munosabatlar ziddiyatining kommunikativ ehtiyoj asosida yumshashi yoki neytrallashuvi masalalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida flektiv tillardagi analitik konstruksiyalarning struktur-semantik tabiati qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** flektiv struktura, analitik shakl, ziddiyat, mo‘tadillashuv, grammatik kategoriya, yordamchi fe‘l, funksional semantika, sintaktik munosabat, modal ma‘no, neytrallashuv.

**Аннотация.** Данное исследование посвящено изучению противоречий аналитических форм во флективных структурах и процессов их нейтрализации. В работе анализируются грамматические и семантические особенности аналитических форм, смысловые отношения, формируемые с помощью вспомогательных средств, а также их функциональные возможности в речевом процессе. Кроме того, научно освещаются вопросы смягчения и нейтрализации противоречий временных, модальных, личностно-числовых и синтаксических отношений в аналитических формах в зависимости от коммуникативных потребностей. В ходе исследования структурно-семантическая природа аналитических конструкций во флективных языках раскрывается на основе сравнительного анализа.

**Ключевые слова:** флективная структура, аналитическая форма, противоречие, нейтрализация, грамматическая категория, вспомогательный глагол, функциональная семантика, синтаксические отношения, модальность, морфология.

**Annotation.** This study is devoted to the investigation of conflicts in analytical forms within fusional structures and the processes of their neutralization. The research analyzes the grammatical and semantic features of analytical forms, the meaning relations formed through auxiliary elements, and their functional potential in speech. It also scientifically explains how the conflicts of tense, modality, person-number, and syntactic relations within analytical forms are softened or neutralized according to communicative needs. During the study, the structural-semantic nature of analytical constructions in fusional languages is revealed through comparative analysis.

**Keywords:** fusional structures, analytical forms, conflict, neutralization, grammatical category, auxiliary verb, functional semantics, syntactic relation, modality, morphology.

**Kirish.** Flektiv tillar — grammatik, ba‘zan leksik ma‘nolar fleksiya yo‘li bilan ifodalanadigan tillar; lingvistik tipologiya, tillarning morfologik tasnifidagi asosiy tushunchalardan biri. Flektiv tillar tushunchasi 1809-yilda nemis olimi F. Shlegel tomonidan fanga kiritilgan. U som tillari, rus tili va ba‘zi hindevropa tillarini Flektiv tillar qatoriga kiritadi. Flektiv tillar 2 ta, odatda, o‘zaro kesishuvchi ichki va tashqi fleksiyali guruxlarga bo‘linadi.[1] Analitik tillar grammatik ma‘nolar (so‘zlar munosabati) shakl yasovchi affikslar yordamida emas, balki yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi va intonatsiya vositasida ifodalanadi. Ingliz, fransuz, ispan, yangi fors tillari analitik tillar

hisoblanadi. Shuningdek, hind-yevropa oilasidagi boshqa tillarda ham ularning alomatlari mavjud.[2]

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu tadqiqotda flektiv va analitik tillar tizimidagi analitik hamda sintetik shakllar, ularning grammatik-semantik xususiyatlari va ziddiyat–mo‘tadillashuv jarayonlari bir qator ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Nazariy asos sifatida V.M. Solnsevning til semantikasi haqidagi qarashlari muhim o‘rin tutadi. U til birliklarining mazmuniy tabiatini ta’kidlab, semantika tilning asosiy “qalbi” ekanligini asoslaydi, bu esa analitik shakllarning funksional mohiyatini tushunishda muhim nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida A. Nurmonov va boshqa olimlar tomonidan tilning morfologik va fonologik tizimi, shuningdek, turkiy tillarning struktural xususiyatlari o‘rganilgan. Ushbu ishlar analitik va sintetik shakllarning o‘zaro munosabatini qiyosiy tahlil qilish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

G‘aniyeva D.A kabi tadqiqotchilar esa zamonaviy til tizimlarida grammatik kategoriyalarning funksional-uslubiy xususiyatlarini hamda o‘zbek va ingliz tillaridagi morfologik jarayonlarni qiyosiy jihatdan tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar analitik shakllarning zamonaviy til dinamikasidagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda analitik va sintetik shakllarning flektiv tillardagi ziddiyati va ularning mo‘tadillashuvi nazariy va qiyosiy tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy yondashuvi lingvistik tipologiya va funksional-semantik tahlilga tayangan bo‘lib, analitik birliklarning grammatik va semantik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida ingliz va rus tillaridagi analitik konstruktsiyalar misollar asosida izohlandi. Qiyosiy metod orqali esa flektiv va analitik tizimlar o‘rtasidagi struktur farqlar va ularning kommunikativ kontekstdagi neytrallashuv jarayonlari aniqlandi. Tadqiqotda komponent tahlil va kontekstual interpretatsiya usullari ham qo‘llanilib, analitik shakllarning pragmatik vazifalari va ziddiyatni yumshatish mexanizmlari ochib berildi.

**Tahlillar va natijalar.** Analitik shakl tushunchasi bu grammatik ma’nolarni so‘z o‘zgarishi (affikslar) orqali emas, balki yordamchi so‘zlar (fe’llar, predloglar, yordamchi birliklar) orqali ifodalovchi shakldir. Ya’ni, bir nechta so‘zlar birlashib bitta grammatik mazmunni beradi. Tilshunoslik tarixida ikki tomonlama birliklar tartibida ma’noga ahamiyat bermaslikning oqibati qanday natijalarga olib kelganligi haqida taniqli tilshunos V.M.Solnsev fikr yuritib, tilshunoslikdagi biror oqim, hatto eng radikal oqimlar ham ma’noga murojaat qilmasdan ish ko‘rolmaganligini ta’kidlaydi va “til shuning uchun tilki, uning birliklari oddiy tovushlar birikmasidan iborat emas, uning birliklari muayyan mazmunga ega, o‘z tarkibida turli ma’nolarni qamraydi, u yoki bu g‘oyani ifodalash qobiliyati mavjud. Semantika yoki ma’no bu tilning qalbidir”, [3] – deb ta’kidlaydi. Shuning uchun tildagi har bir shakl ma’lum bir mazmunni ifodalash yoki uni ifodalash jarayonida ishtirok etish vazifasini bajaradi. Mazmunning kengayishi har bir belgi uchun

tabiiy holat bo'lsa, belgilar sonining ortishi esa yangi mazmunlarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Flektiv tillar esa tillar tipologiyasida alohida o'rin tutadigan, ularning morfologik tuzilishi va grammatik kategoriyalarini shakllantirish xususiyatlari bilan tavsiflanadigan til guruhidir. Ushbu tillarda morfemalar o'zaro birikib, yangi shakllarni hosil qilishda «fuziya» hodisasi namoyon bo'ladi, ya'ni turli grammatik ma'nolar bitta morfema orqali ifodalanadi. Shuning uchun flektiv tillar ko'pincha o'z murakkabligi va grammatik shakllarning ko'p funksiyaliligi bilan ajralib turadi. Flektiv tillarning morfologik tizimi asosan analitik va sintetik shakllar o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi. Analitik shakllarda esa grammatik ma'no yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi, bu esa rus tili, nemis tili va ingliz tillariga xos bo'lgan hodisa.

G'aniyeva D. A. "Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi".[4] Ushbu maqolada agglyutinativ va flektiv tillarda nisbat kategoriyasining talqini, turlari va funksional-uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Matyakubova Noila esa «"Aligner" dasturiy vositasi uchun o'zbek-ingliz tilida sifat va uning darajalarining morfologik tahlili».[5] Maqolada o'zbek va ingliz tillarida sifat va uning shakllari yasalishining morfologik tahlili ko'rib chiqiladi. Til dinamikasi masalalari 20-21-asrlar bo'yida til va muloqotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan yirik ijtimoiy o'zgarishlar tufayli ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. Zamonaviy tilshunoslik til tizimidagi o'zgarishlar va nutqdagi o'ziga xos lingvistik birliklarning ishlashi bilan bog'liq hodisalarni tavsiflashda katta tajriba to'pladi. Faol lingvistik jarayonlarni tahlil qilish nafaqat zamonaviy rus tilini uning dinamikasida ob'ektiv tavsiflash, balki umuman til o'zgarishi vektorini aniqlash va tilda sodir bo'layotgan birlamchi va ikkilamchi hodisalarni farqlash uchun ham muhimdir.

3.2.1 – jadval

#### Analitik va sintetik shakllarning struktural farqlari

Tillar turi	Grammatik ma'no ifodalovchi vosita	Tipik shakl misollari	Ziddiyatli jihat	Mo'tadillashuv mexanizmi
Flektiv (sintetik)	Fleksiya, morfemalarning qo'shilishi orqali	писал, думал, сделал (rus tili)	Ko'p grammatik ma'no bitta morfemada mujassam; tilda sintaktik soddalik yuz beradi	Morfemalarning semantik integratsiyasi tizimni barqarorlashtiradi
Analitik	Yordamchi so'zlar, tartib, intonatsiya orqali	will go, have done, is being rude (ingliz tili)	Ma'no segmentatsiyasi; asosiy va yordamchi fe'l o'rtasida semantik tafovut	Kontekst orqali ma'no neytrallashadi; yordamchi fe'l grammatiklashadi

3.2.1 – jadvalda qisqacha ifodalangan flektiv tizimlarda grammatik ma'nolar morfemalar orqali ifodalanadi (masalan, rus tilidagi *'нужал'* – harakat, zamon, shaxs bitta shaklda mujassam). Analitik tillarda esa ma'no yordamchi birliklarga tarqalgan (*'is being*

*rude'* – holat + jarayon). Ziddiyat bu ikki qatlamli ma'nolarning to'qnashuvida yuzaga keladi, ammo kontekstual mo'tadillashuv uni bartaraf etadi.

3.2.2 – jadval

## Ingliz tilidagi analitik shakllarda ziddiyat va mo'tadillashuv

Analitik birlik	Grammatik vazifasi	Semantik ziddiyat namoyoni	Mo'tadillashuv yo'li	Misol bilan tahlil
To be (is/are/am + V-ing)	Davomli zamon hosil qilish	Holat (He is rude) va jarayon (He is being rude) ma'nolari to'qnashadi	Kontekst orqali vaqtinchalik belgisi bilan neytrallashadi	He is being rude – holat vaqtinchalik, He is rude – doimiy xususiyat
To have (have/has + V3)	Tugallangan zamon ifodasi	Egalik (have a car) va yakuniylik (have done) ma'nolari o'zaro zid	Yordamchi <i>have</i> semantik yukini yo'qotib, grammatiklashadi	I have had breakfast – yordamchi va asosiy <i>have</i> birikadi
To do (do/does/did)	So'roq, inkor yoki ta'kid ifodalash	Mustaqil harakat (do work) va yordamchi fe'l (does work) o'rtasida ziddiyat	Ta'kid ma'nosini kuchaytiruvchi semantik neytrallashuv	He <i>does</i> work hard – sintaktik jihatdan ta'kidlangan holat

3.2.1 – jadval ingliz tilidagi analitik birliklarning ziddiyatli, ammo funksional jihatdan barqaror holatlarini ko'rsatadi. Barcha hollarda semantik ziddiyat pragmatik ehtiyoj sababli neytrallashadi. Bu hodisa grammatiklashuv jarayoni sifatida baholanadi.

3.2.3 – jadval

## Rus tilidagi analitik shakllarning tarixiy shakllanish bosqichlari

Davr	Til tizimining xususiyati	Analitik shakllarning shakllanish omillari	Misollar	Ilmiy talqin
O'rta asrlar oxiri – yangi davr boshi	Sintetik tuzilma ustun	Fleksiyalar qisqarishi, yordamchi so'zlar paydo bo'lishi	буду писать, буду думать	Sintetikdan analitik tizimga o'tish boshlanishi
XVIII–XIX asrlar	Tilning normativlashuvi	Yevropa ta'siri, siyosiy va madaniy o'zgarishlar	самый добрый, более красный	Qiyosiy darajalarning analitik shakllari paydo bo'ladi
XX asr – Sovet davri	Adabiy tilning me'yorlashuvi	Grammatik va sintaktik standartlar kuchayadi	писал бы, думал бы	Analitik shakllar sintaktik muvozanatni saqlovchi vositaga aylanadi

Rus tilidagi analitik shakllarning rivojlanishi ichki morfologik o'zgarishlar bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar ta'sirida kechgan. Tizimdagi morfologik soddalashuv yordamchi birliklarning ko'payishiga sabab bo'lgan. Bu jarayon tipologik jihatdan flektiv tizimlarning analitiklashuvi deb ataladi.

Avvalo, ingliz tilida analitik shakllar deganda yordamchi fe'llar yoki ko'makchi birliklar (modal fe'llar, zamon, yordamchi so'zlar) orqali ifodalangan *to be*, *to have*, *to do*, *will*, *can*, *must* va hokazo grammatik ma'noli shakllar tushuniladi. Misol uchun “*to be*” – *bo'lmoq* fe'li bilan bog'liq analitik ziddiyat shundaki, bu fe'l holat bildiruvchi fe'l bo'lib,

odatda jarayon yoki harakatni emas, mavjudlikni, holatni bildiradi. Ammo u davomli zamonda ya'ni asosiy fe'l o'zagi (ing shakli) bilan qo'llanganda, holat va jarayon orasida semantik ziddiyat yuzaga keladi. Masalan: *He is being rude*. (U qo'pol bo'lib boryapti yoki bo'lyapti.) va *He is rude*. (U qo'pol). Ikkala gap ham grammatik struktura jihatdan to'g'ri tuzulgan va semantik jihatdan biri ikkinchisi bilan muvofiqlasha oladi. Ularni ziddiyatga kirishish xolati shundaki, bu yerda "to be" (am, is, are – hozirgi zamonda) yordamchi fe'li odatda holatni bildiradi (doimiy ish harakat, aniqroq ko'radigan bo'lsak *He is rude* – u doim qo'pol, tabiatan doim shunday bo'lgan), ammo "being" shakli (*he is being rude* – u borgan sari qo'pollashib boryapti. Nimadur sabab bo'lgan, lekin oldin u bunday emas edi) davomiylik jarayonni bildiradi va bu yerda neytrallashish hodisasi shuki, tildagi pragmatik ehtiyoj sababli bu forma vaqtinchalik holatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ya'ni "He is rude" (doimiy xususiyat) va "He is being rude" (hozirda shunday tutyapti) orasidagi semantik to'qnashuv kontekst orqali mo'tadillashadi. Flektiv tillarning analitik shakllar turkumidagi ingliz tilining yordamchi *to have* fe'li o'zbek tiliga "bor bo'lmoq", *qilmoq* va so'z birikmalarda esa yana ham turlicha tarjimalar qilinadi (kontekstga qarab). Shaxs kategoriyalari bo'yicha bu fe'l tuslanish xususiyatiga ega, ya'ni *I, you, we, they – have, she, he, it – has* shaklida tuslanadi. Masalan: *I have had breakfast* (Men nonushta qilib bo'lganman - hozirgi tugallangan zamon). Ziddiyat shundaki, aslida "To have" egalikni bildiruvchi asosiy fe'l, lekin gapda tugallangan hozirgi zamonning yordamchi fe'li sifatida ishlatilganda harakatni yakuniy holat bilan bog'laydi. Shuningdek, bu yerda birinchi "have" — yordamchi fe'l, ikkinchi "had" — have shaklining o'tgan zamon shakli bo'lib asosiy fe'l bo'lib kelmoqda. Bir shakl ichida "egalik" va "yakuniylik" ma'nolari to'qnashadi. *To have* yordamchi fe'li vazifasidagi have grammatiklashib, semantik yukini yo'qotgan va tildagi tushuncha bu ziddiyatni bartaraf etadi. *To do* - bu ingliz tilida yordamchi fe'l bo'lib, u ayniqsa hozirgi va o'tgan zamonlarida so'roq va inkor gaplar yasashda ishlatiladi. *To do* yordamchi fe'lining asosiy vazifasi asosiy fe'ning bo'lishsiz va so'roq shakllarini hosil qilishdir. Shuningdek, *to do* yordamchi fe'li buyruq gaplarining inkor shaklini yasashda ham qo'llaniladi, Bundan tashqari, bu fe'l buyruq gaplarda iltimosni kuchaytirish uchun ham ishlatiladi. Nazariy nuqtai nazardan, yordamchi fe'llar o'zining mustaqil ma'nosiga ega emas, balki ular birikmada asosiy fe'ning ma'nosini qo'llab-quvvatlash, zamon, shaxs va ibora shakllarini ifodalashda yordam beradi. Lekin, ba'zida *To do* yordamchi fe'li asosiy fe'ldan oldin kelib, asosiy fe'ni ma'nosini kuchaytirish uchun ham ishlatiladi. Umuman olganda ingliz tilida *do* fe'li o'zi mustaqil harakatni bildiradi va *qilmoq, bajarmoq, ado etmoq* kabi tarjima qilinadi, lekin yordamchi sifatida ishlatilganda grammatik vositaga aylanadi. Masalan: *He does work hard*. (U, albatta, qattiq ishlaydi.) Bu yerda "does" ta'kid ma'nosida yordamchi fe'l bo'lib ishlatilmoqda. Usbu xolatda ziddiyatning paydo bo'lish xolati shundaki, *do* mazmuniy ma'no beruvchi fe'l va *do* yordamchi fe'l sifatida bir tizimda birlashgan. Aslida gapimiz *He works hard* shaklida namoyon bo'lishi kerak edi. Taqqoslaydigan bo'lsak, *He does*

*work hard* va *He works hard* gaplari bir xil grammatik kuchga ega, lekin semantik jihatdan *He does work hard* – U, albatta, qattiq ishlaydi. *He works hard* – u qattiq ishlaydi kabi tarjima qilinadi. *Do* yordamchi fe’li grammatik va semantik jihatdan grammatik jihatdan ziddiyatga kirishgan, semantik jihatdan mo’tadillashgan. Yordamchi so‘zlardan *will* va *be going to* ingliz tilida kelasi zamonlar ish-harakatini ifodalash uchun ishlatiladi. Garchi ular bir xil zamonlarni aks ettirishiga qaramay, ular o‘rtasida turlicha yondashuvlar mavjud. *Will* ko‘proq tasodifan yoki tezkor qarorlar uchun, *be going to* esa oldindan rejalashtirilgan harakatlar mavjud bo‘lganda ishlatiladi. Bu ikki tushunchani ikkalasi ham kelasi zamoni bildiradi, ammo biri modal ma’noda, ikkinchisi rejalashtirilgan harakatni bildiradi. Masalan: *I will go tomorrow* – (Men ertaga boraman) va *I am going to go tomorrow* – (Men ertaga borish niyatidaman). Bir tilda bitta zamon ma’nosini ikki xil analitik birlik bildirgan bu esa albatta zidlanishga sababchi bo‘lgan. Gapdagi kontekst bu ma’nolarni ajratadi ya’ni *will* rejalashtirilmagan niyatni, *be going to* esa oldindan belgilanganni bildiradi. Analitik shakl bo‘lgan “*to be + infinitive*” u ingliz tilida majburiyat, rejalashtirilgan harakat, ko‘rsatma yoki oldindan belgilangan voqea ma’nolarini ifodalaydi. Bu strukturada ishlatilgan *to be* – bo‘lmoq yordamchi fe’li *to be + infinitive* strukturasi bilan o‘zaro ziddiyatga kirisha oladi. Misol uchun: *You are to leave now*. (Siz hozir ketishingiz kerak) va *You are in danger* (Siz xavf ostidasiz, ostida bo‘lasiz). Ikkala gapda ham *to be* yordamchi fe’lining hozir zamonda *are* ikkinchi shaxs ko‘plik shakli ishlatilgan. Shuningdek, bu yerda *to be* shakl “majburiyat”, “reja”, “tartib” ma’nolarini bildiradi, lekin “*to be*” aslida bo‘lmoq fe’li shaklida ifodalanadi. Modal ma’noga ega bo‘lgan “*to be + infinitive*” konstruksiyasi tildagi mustahkam grammatik qolipga aylangan va *to be* yordamchi fe’li bilan o‘zaro mo’tadillashgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, flektiv strukturalarda analitik shakllar ziddiyati til tizimining murakkab grammatik va semantik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ziddiyatlar nutq jarayonida kommunikativ ehtiyoj, kontekst hamda funksional vazifa asosida mo’tadillashadi yoki neytrallanadi. Tadqiqot natijalari flektiv tillardagi analitik shakllarning struktur-semantik imkoniyatlarini aniqlashga, ularning grammatik kategoriya va sintaktik munosabatlar bilan aloqadorligini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, analitik shakllarning funksional tabiatini o‘rganish tilshunoslikda morfologik va sintaktik hodisalarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elektron manba: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Flektiv\\_tillar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Flektiv_tillar). (Murojaat sanasi: 7.04.2024).
2. Elektron manba: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Analitik\\_tillar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Analitik_tillar). (Murojaat sanasi: 17.05.2024).
3. Солнцев В.М. К вопросу о семантике или языковом значении. – Предисловие к сборнику «Проблемы семантики». –М., 1974. –С. 4.
4. G‘aniyeva D.A. "Turli tizimdagi tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunksionalligi", FarDU Ilmiy Xabarlar, 2022-3, 171-175-betlar
5. Matyakubova Noila ""Aligner" dasturiy vositasi uchun o‘zbek-ingliz tilida sifat va uning darajalarining morfologik tahlili", O‘zbekiston: til va madaniyat, 2023, 3-jild, 3-son